



2023-yil yanvar-may oylari uchun
dastlabki ma'lumot



SAMARQAND VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi qisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:
(66) 235-65-80



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-yil** yanvar-may oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **1 056,2 mln. AQSh** dollariga yetdi va **2022-yilning** yanvar-may oylariga nisbatan **144,7 mln. AQSh** dollariga yoki **15,9 %** ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-may, mln. AQSh dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2023-y. **1 056,2** **+15,9 %**

(2022-y. **911,5**)



Saldo

2023-y. - **591,3** (2022 y. - **428,0**)



Eksport

2023-y. **232,5** **- 3,8 %**

(2022-y. **241,7**)



Tovarlari: 218,4



Xizmatlar: 14,0



Import

2023-y. **823,8** **+23,0%**

(2022-y. **669,8**)



Tovarlari: 822,5



Xizmatlar: 1,3

Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi **232,5** mln. AQSh dollariga (**3,8 %** ga kamaydi) va import hajmi **823,8** mln. AQSh dollariga (**23,0 %** ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida - **591,3** mln. AQSh dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



SAMARQAND VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023-yil yanvar-may, mln. AQSh dollari va ulushi % da)



Rossiya TSA – 251,5 Eksport: 67,8 Import: 183,7  23,8 %	XXR TSA – 248,3 Eksport: 15,4 Import: 232,9  23,5 %	Qozog‘iston TSA – 131,9 Eksport: 40,0 Import: 91,8  12,5 %	Turkiya TSA – 71,8 Eksport: 16,0 Import: 55,8  6,8 %	Tojikiston TSA – 27,8 Eksport: 23,7 Import: 4,1  2,6 %
Sloveniya TSA – 24,4 Eksport: 0,0 Import: 24,4  2,3 %	Germaniya TSA – 24,3 Eksport: 2,0 Import: 22,3  2,3 %	Polsha TSA – 22,0 Eksport: 1,4 Import: 20,6  2,1 %	Yaponiya TSA – 21,1 Eksport: 0,0 Import: 21,1  2,0 %	Eron TSA – 17,1 Eksport: 1,7 Import: 15,4  1,6 %

Samarqand viloyati jahonning **88** ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissi Rossiya Federatsiyasida (**23,8** %), Xitoy Xalq Respublikasida (**23,5** %), Qozog'istonda (**12,5** %), Turkiyada (**6,8** %), Tojikistonda (**2,6** %), Sloveniyada (**2,3** %) va Germaniyada (**2,3** %) qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iz Respublikasi va Qozog'iston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qozog'iston bilan **78,5** foizga oshdi.



TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023-yil yanvar-may, mln. AQSh dollari)



Tojikiston– 27,8



Qirg'iz Respublikasi – 10,6



Belarus– 9,6



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan uchta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Tojikiston, Qirg'iz respublikasi va Belarus davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **17** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



SAMARQAND VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-may, mln. AQSh dollari)



Davlatlar	2021-y.	2022-y.	2023-y.
Rossiya Federatsiyasi	117,0	155,0	251,5

Eksport

39,5

45,7

67,8

Import

77,5

139,3

183,7



Xitoy Xalq Respublikasi	106,7	155,5	248,3
--------------------------------	--------------	--------------	--------------

Eksport

21,4

23,1

15,4

Import

85,3

132,4

232,9



Qozog'iston	73,8	147,0	131,9
--------------------	-------------	--------------	--------------

Eksport

14,0

40,6

40,0

Import

59,8

106,4

91,9



Turkiya	63,1	74,0	71,8
----------------	-------------	-------------	-------------

Eksport

17,6

31,8

16,0

Import

45,5

42,2

55,8



Tojikiston	23,0	25,9	27,8
-------------------	-------------	-------------	-------------

Eksport

21,2

23,1

23,7

Import

1,8

2,8

4,1



Sloveniya	17,8	18,4	24,4
------------------	-------------	-------------	-------------

Eksport

0,0

0,0

0,0

Import

17,8

18,4

24,4



Germaniya	19,1	21,9	24,3
------------------	-------------	-------------	-------------

Eksport

0,8

0,8

2,0

Import

18,3

21,1

22,3



Polsha	5,9	9,0	22,0
---------------	------------	------------	-------------

Eksport

1,1

2,2

1,4

Import

4,8

6,8

20,6



Yaponiya	38,6	40,6	21,1
-----------------	-------------	-------------	-------------

Eksport

0,0

0,0

0,0

Import

38,6

40,6

21,1



Eron	11,7	16,2	17,1
-------------	-------------	-------------	-------------

Eksport

1,6

2,1

1,7

Import

10,1

14,1

15,4



Davomi

	Davlatlar	2021-y.	2022-y.	2023-y.
	Hindiston	13,7	29,4	14,8
	<i>Eksport</i>	0,1	0,3	1,2
	<i>Import</i>	13,6	29,1	13,6
	Litva	10,2	14,4	14,7
	<i>Eksport</i>	0,2	3,3	1,9
	<i>Import</i>	10,0	11,1	12,8
	Latviya	11,0	12,3	14,1
	<i>Eksport</i>	0,4	1,0	0,7
	<i>Import</i>	10,6	11,3	13,3
	Italiya	4,5	6,5	10,9
	<i>Eksport</i>	2,5	3,0	2,1
	<i>Import</i>	2,0	3,5	8,8
	Qirg'iz Respublikasi	12,6	16,4	10,6
	<i>Eksport</i>	12,1	15,3	9,2
	<i>Import</i>	0,5	1,1	1,4
	Belarus Respublikasi	6,3	22,1	9,6
	<i>Eksport</i>	3,0	6,3	6,9
	<i>Import</i>	3,3	15,9	2,7
	Gruziya	10,0	10,9	8,9
	<i>Eksport</i>	1,2	3,1	2,9
	<i>Import</i>	8,8	7,8	6,0
	Niderlandiya	4,7	8,6	8,4
	<i>Eksport</i>	0,3	1,6	0,1
	<i>Import</i>	4,4	7,1	8,3
	Bangladesh	5,9	5,1	7,8
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	5,9	5,1	7,8
	Turkmaniston	10,9	9,6	7,0
	<i>Eksport</i>	1,4	1,4	2,5
	<i>Import</i>	9,5	8,2	4,5



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023-yil yanvar-may) ¹

	Hajm mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Samarqand viloyati	1 056,2	115,9	100,0
Samarqand shahri	537,3	123,9	50,9
Kattaqo'rg'on shahri	17,2	132,3	1,6
tumanlar:			
Oqdaryo	17,0	89,5	1,6
Bulung'ur	9,9	101,9	0,9
Jomboy	75,2	71,0	7,1
Ishtixon	9,7	63,1	0,9
Kattaqo'rg'on	104,0	9,3 m.	9,8
Qo'shrabot	3,1	106,8	0,3
Narpay	12,2	177,6	1,2
Payariq	8,7	149,0	0,8
Pastdarg'om	31,2	95,5	3,0
Paxtachi	4,8	48,2	0,5
Samarqand	83,1	103,6	7,9
Nurobod	11,4	160,4	1,1
Urgut	74,9	90,5	7,1
Toyloq	53,3	72,1	5,0

Eng yuqori hajm,
mln AQSh dollari



Samarqand sh. 412,6

Kattaqo'rg'on t. 70,0

Samarqand t. 63,5

Eng quyi hajm,
mln AQSh dollari



Payariq t. 7,1


Paxtachi t. 3,0

Qo'shrabot t. 2,5

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **50,9 %** ulush bilan **537,3** mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Qo'shrabot tumani **0,3 %** ulush bilan **3,1** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

¹ Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Samarqand viloyati, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

SAMARQAND VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSh dollarida)



2023-yilning yanvar-may oylarida, Samarqand viloyati tashqi savdo aylanmasining **42,9** % ulushi MDH davlatlariga to'g'ri kelib, tashqi savdo aylanmasidagi 2022-yilning mos davriga nisbatan ulushi **1,8** % ga kamaygan.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023-yilning yanvar-may oylarida 2022-yilning mos davriga nisbatan **1,8** % ga ko'paydi va jami TSAdagi ulushi **57,1** % ni tashkil etdi.

Samarqand viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023-yil yanvar-may holatiga ko'ra, **452,9** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **158,6** mln. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import **294,3** mln. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.



SAMARQAND VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023-yil yanvar-may, mln. AQSh dollari)

Rossiya

TSA – 251,5
Eksport – 67,8
Import – 183,7



Qozog'iston

TSA – 131,9
Eksport – 40,0
Import – 91,9



Tojikiston

TSA – 27,8
Eksport – 23,7
Import – 4,1



Qirg'iz Respublikasi

TSA – 10,6
Eksport – 9,2
Import – 1,4



Belarus Respublikasi

TSA – 9,6
Eksport – 6,9
Import – 2,7



Turkmaniston

TSA – 7,0
Eksport – 2,5
Import – 4,5



Ozərbayjon

TSA – 7,0
Eksport – 5,7
Import – 1,3



Ukraina

TSA – 5,5
Eksport – 1,9
Import – 3,7



Armaniston

TSA – 1,1
Eksport – 0,3
Import – 0,8



Moldova


TSA – 0,7
Eksport – 0,6
Import – 0,1



Samarqand viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**52,7 %**), Qozog'iston (**31,0 %**) hamda Tojikiston (**6,5 %**) davlatlari bilan qayd etildi.

SAMARQAND VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2023 yil yanvar-may, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



 Samarqand viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **404,8** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **124,3** mln. AQSh dollari, import hajmi esa **280,5** mln. AQSh dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YeOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



SAMARQAND VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Viloyatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **444** taga yetdi va ular tomonidan **232,5** mln. AQSh dollari qiymatidagi (2022-yilning mos davriga nisbatan **3,8** % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST¹ BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2023-yil yanvar-may, ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



SAMARQAND VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-may, yillar kesimida)

XSST tarkibi	mln. AQSh dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	241,7	232,5	137,3	96,2	100,0	100,0

shu jumladan:

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	79,5	87,1	134,0	109,5	32,9	37,4
Ichimliklar va tamaki	1,9	3,1	109,8	158,3	0,8	1,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	10,1	6,7	80,3	65,9	4,2	2,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	3,7	0,0	7,0 m.	0,0	1,5	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	9,4	3,1	182,4 m.	33,6	3,9	1,4
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	13,5	2,0	183,2	14,7	5,6	0,9
Sanoat tovarlari	81,6	62,2	155,7	76,3	33,7	26,8
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	16,5	31,2	87,9	189,8	6,8	13,4
Turli xil tayyor buyumlar	19,0	23,0	103,4	121,1	7,9	9,9
Xizmatlar	6,5	14,0	134,9	2,2 m.	2,7	6,0

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **94,0 %** ni tashkil etib, ulardan eng yuqorilari oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**37,4 %**), sanoat tovarlari (**26,8 %**) va mashina va transport asbob-uskunolari (**13,4 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



SAMARQAND VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2023-yil yanvar-may)


XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2022-yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	70,1	121,2
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	11,3	105,6
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	3,7	57,2
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	3,1	158,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	2,9	43,7
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	2,0	69,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	0,001	0,032
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simliklar moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	3,1	33,6
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	0,6	71,3
Boshqa joyda tavsiflanmagan kimyoviy vositalar va mahsulotlar	0,4	16,5 m.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,3	2,3
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	0,2	3,3 m.

XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2022-yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	31,5	59,4
Cho'yan va po'lat	18,2	97,1
Rangli metal	6,2	103,5
Boshqa joyda tasniflanmagan ruda bo'lmagan mahsulotlar	4,9	2,3 m.
Mashinalar va transport asbob-uskunalar		
Avtomobillar	26,8	2,2 m.
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari, boshqa joyda tasniflanmagan	2,9	2,4 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar, asbob - uskunalar va ularning ehtiyot qismlari, boshqa joyda tasniflanmagan	1,2	101,8
Aniq sohalar uchun maxsus bo'lgan mashinalar va uskunalar	0,3	16,4
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	19,3	133,4
Poyafzal	2,7	63,6
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	0,5	4,5 m.
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	0,3	11,8 m.
Xizmatlar		
Transport xizmatlari	6,1	3,3 m.
Turizm xizmatlari	5,3	4,9 m.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023-yilning yanvar-may oylarida MDH mamlakatlariga **158,6** mln. AQSh dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **68,2** % ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSh dollarida)



2023-yilning yanvar-may oylari yakunida eksport bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining **29,2** %) va Qozog'iston (**17,2** %) davlatlari yetakchilik qildi. Yuqoridagi yetti yirik davlatlarning jami eksportdagi ulushi **77,0** %ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023-yil yanvar-may, % da)





SAMARQAND VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-may, yillar kesimida)*

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Rossiya Federatsiyasi	45,7	67,8	115,9	148,2	1	1
Qozog'iston	40,6	40,0	2,9 m.	98,5	2	2
Tojikiston	23,1	23,7	108,6	102,9	5	3
Turkiya	31,8	16,0	180,8	50,4	3	4
Xitoy Xalq Respublikasi	23,1	15,4	107,6	66,8	4	5
Qirg'iz Respublikasi	15,3	9,2	126,0	60,0	7	6
Belarus Respublikasi	6,3	6,9	2,1 m.	110,6	8	7
Afg'oniston	16,2	6,3	164,5	39,1	6	8
Ozarbajjon	6,1	5,7	87,7	93,1	9	9
Gruziya	3,1	2,9	2,7 m.	95,2	11	10
Turkmaniston	1,4	2,5	100,3	173,6	20	11
AQSh	2,1	2,3	162,4	106,3	14	12
BAA	1,5	2,1	84,2	142,4	19	13
Italiya	3,0	2,1	116,0	71,7	12	14
Misr	0,0	2,0	140,2 m.	76,9 m.	44	15
Germaniya	0,8	2,0	109,4	2,4m.	25	16
Litva	3,3	1,9	17,5 m.	57,6	10	17
Ukraina	2,0	1,9	42,6	91,7	16	18
Eron	2,1	1,7	137,7	79,3	15	19
Polsha	2,2	1,4	196,5	63,0	13	20



SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023-yil yanvar-may) ¹

	Hajm mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Samarqand viloyati	232,5	96,2	100
Samarqand shahri	98,8	119,6	42,5
Kattaqo'rg'on shahri	6,7	86,3	2,9
tumanlar:			
Oqdaryo	8,0	80,3	3,4
Bulung'ur	6,5	88,6	2,8
Jomboy	23,3	90,7	10,0
Ishtixon	6,6	71,2	2,8
Kattaqo'rg'on	3,2	42,7	1,4
Qo'shrabot	0,7	56,8	0,3
Narpay	7,6	138,8	3,3
Payariq	4,7	131,4	2,0
Pastdarg'om	6,4	89,9	2,8
Paxtachi	3,4	39,8	1,4
Samarqand	26,3	105,2	11,3
Nurobod	1,4	5,2 m.	0,6
Urgut	19,6	82,2	8,4
Toyloq	5,9	39,5	2,5

Eng yuqori hajm,
mln AQSh dollari



Samarqand sh. 98,8

Samarqand 26,3

Jomboy 23,3

Eng quyi hajm,
mln AQSh dollari



Kattaqo'rg'on 3,2

Nurobod 1,4

Qo'shrabot 0,7

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **42,5 %** ulush bilan **98,8** mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Qo'shrabot tumani **0,3 %** ulush bilan **0,7** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

¹ Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Samarqand viloyati, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023-yil yanvar-may oylarida **53,9** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022-yilning mos davriga nisbatan **0,4** mln AQSh dollariga yoki **22,1** ming tonnaga kamaydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya (**27,8** %), XXR (**14,5** %), Belarus Respublikasi (**8,6** %), hamda Turkiya (**7,8** %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2023-yil yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **54,5** mln. AQSh dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2022-yilning mos davriga nisbatan **0,7** %ga kamaydi va jami eksportdagi ulushi **23,5** %ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2023-yil yanvar-may, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

Uzum yangi uzilgan 15,5 mln. AQSh dollari 14,3 ming tonna  76,7 % ↓	Meva va rezavorlar 18,2 mln. AQSh dollari 13,6 ming tonna  162,5 % ↑	Qalampir 0,6 mln. AQSh dollari 0,2 ming tonna  54,5 % ↓	Sabzavotlar 18,2 mln. AQSh dollari 24,2 ming tonna  91,0 % ↓
Uzum quritilgan 14,0 mln. AQSh dollari 12,7 ming tonna  71,8 % ↓	Kartoshka 0,0 mln. AQSh dollari 0,0 ming tonna  0,0 % ↓	Yeryong'oq 2,0 mln. AQSh dollari 1,4 ming tonna  80,0 % ↓	Qovun va tarvuz 0,1 mln. AQSh dollari 0,2 ming tonna  3,8 m. ↑



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023-yil yanvar-may)

Davlatlar	Ming tonna	Mln. AQSh dollari	Ulushi, % da ¹
 Rossiya Federatsiyasi	15,5	15,2	27,8
 Xitoy Xalq Respublikasi	9,5	7,9	14,5
 Belarus Respublikasi	5,4	4,7	8,6
 Turkiya	3,1	4,3	7,8
 Qozog'iston	3,7	2,6	4,7
 Ozarbayjon	1,6	2,2	4,0
 Gruziya	2,6	1,8	3,4
 Litva	0,8	1,8	3,3
 Ukraina	2,1	1,7	3,2
 Eron	1,3	1,5	2,8
 AQSH	0,3	1,5	2,7
 Pokiston	1,1	1,3	2,4
 BAA	0,8	1,1	2,0
 Iroq	0,9	0,9	1,7
 Brazilya	1,0	0,8	1,4
 Boshqa davlatlar	4,2	5,3	9,7

¹ qiymat ifodasidan



2023-yil yanvar-may oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Rossiya Federatsiyasiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **27,8%** i), bu Xitoy Xalq Respublikasi eksport hajmidan **13,3** % ga ko'p.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O'zbekiston uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2023-yil yanvar-may oylari yakuni bo'yicha **35,9 mln.** AQSh dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **15,4 %** ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **47,3 %** ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor tirikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**53,3 %**), Gilam mahsulotlari (**16,6 %**) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan **76** turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning **23** ta davlatiga eksport qilindi.

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-may, mln. AQSh dollari)

		2022-yil	2023-yil
Jami		68,2	35,9
	Tayyor to'qimachilik mahsulotlari	14,3	19,1
	Gilamlar	7,7	6,0
	Ipak va ipak mahsulotlari	5,6	4,2
	Naqshli mato	3,5	3,2
	Paxtadan gazlamalar	2,4	1,2
	Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	34,6	2,2

DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSh dollari)



	2022-yil	2023-yil	Ulushi , % da
 Rossiya Federatsiyasi	16,2	15,6	43,6
 Qirg‘iz Respublikasi	6,7	3,6	10,1
 Tojikiston	3,2	3,6	10,0
 Ozarbayjon	1,9	2,5	7,1
 Italiya	2,9	2,1	5,8
 Qozog‘iston	1,1	1,2	3,4
 Belarus Respublikasi	0,0	1,2	3,2
 Afg‘oniston	1,1	1,0	2,9
 Germaniya	0,0	1,0	2,8
 Xitoy Xalq Respublikasi	13,6	1,0	2,8
 Turkmaniston	0,2	0,9	2,4
 Turkiya	17,6	0,6	1,6
 Vetnam	0,0	0,5	1,3
 Moldova Respublikasi	0,4	0,2	0,7
 Boshqa davlatlar	3,3	0,9	2,5




Viloyatning to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati va hamkor davlatlardagi to‘qimachilik bozoridagi ulushi oshib bormoqda.

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya Federatsiyasi (15,6 mln. AQSh dollari – 43,6 %) va Qirg‘iz Respublikasi (3,6 mln. AQSh dollari – 10,1 %) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Viloyatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2023-yil yanvar-may, ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **14,0** mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining **6,0** % ini tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **2,2** martaga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlar (**43,2** %), safarlar (turizm) xizmatlar (**37,5** %), moliyaviy xizmatlar (**15,5** %) va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (**3,8** %) hissasiga to'g'ri kelgan. Shu bilan birga boshqa ish bilan bo'g'liq xizmatlar (**0,1** %), boshqa xizmatlar (**0,0** %) hissasiga to'g'ri keldi.



SAMARQAND VILOYATINING IMPORT




2023-yilning yanvar-may oylarida import hajmi **823,8** mln. AQSh dollarini va 2022-yilning mos davriga nisbatan **123,0** % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng yuqori ulush mashinalar va transport asbob-uskunolari (**31,5** %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**25,3** %), hamda sanoat tovarlari (**24,0** %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023-yil yanvar-may, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023-yilning yanvar-may oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **153,7** mln. AQSh dollariga ko'paydi va **822,5** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar **1,3** mln. AQSh dollariga yetdi.



SAMARQAND VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-may, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami import	669,8	823,8	128,2	123,0	100,0	100,0

shu jumladan:

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	74,2	73,5	147,9	99,1	11,1	8,9
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,0	96,0	29,5	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	35,4	26,2	139,9	74,1	5,3	3,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	8,8	20,6	73,4	2,3 m.	1,3	2,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	8,3	18,9	67,9	2,3 m.	1,2	2,3
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	175,1	208,7	113,8	119,2	26,1	25,3
Sanoat tovarlari	150,9	197,6	172,5	131,0	22,5	24,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	201,1	259,8	120,2	129,2	30,0	31,5
Turli xil tayyor buyumlar	14,9	17,0	110,0	113,8	2,2	2,1
Xizmatlar	1,0	1,3	157,3	124,8	0,2	0,2



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2023-yil yanvar-may)

XSST bo'limi nomi	Mln AQSh dollari	2022-yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	28,7	163,0
Hayvonlar uchun ozuqalar	20,5	157,6
Meva va sabzavotlar	12,6	124,5
Tirik hayvonlar uchun ozuqalar 03 bo'limdakilarni qo'shgan holda	5,2	100,7
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	0,02	29,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	10,1	48,5
Probka va yog'och-taxtalar	6,4	100,0
Tabiiy kauchik	2,2	78,4
Boshqa joyda tasniflanmagan hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo mahsulotlari	2,7	95,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	19,4	2,4 m.
Ko'mir, koks va briketlar	1,3	159,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moyi va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	18,1	2,3 m.
Hayvonlar va o'simliklar moyi va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar; boshqa joyda tasniflanmagan hayvonlar va o'simlik yog'lari va moyidan olingan texnik aralashmalar va preparatlar	0,9	2,8 m.
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	124,7	107,9
Birlamchi shakldagi plastmassalar	33,4	116,4
Bo'yoqlar va bo'yoq mahsulotlari	12,8	2,4 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy vositalar	15,7	183,7


XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	118,3	131,6
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	30,4	123,3
Boshqa joyda tasniflanmagan metallardan tayyorlangan buyumlar	10,6	116,7
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	9,6	101,1
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	92,9	111,7
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	71,8	2,6 m.
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	67,3	96,3
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari	19,3	2,9 m.
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	7,4	177,6
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	4,9	90,1
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	2,0	90,5
Poyabzal	1,2	129,9
Xizmatlar		
Transport xizmati	1,3	127,0
Safar (turizm) xizmati	0,02	-



2023-yil yanvar-may oylariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **35,7 %** ni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **4,0 %**ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-may, mln. AQSh dollarida)



2023-yil yanvar-may oylarida Samarqand Viloyati **79** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Sloveniya, Germaniya va Yaponiya) jami importning **76,8 %** ulushini tashkil etdi.



VILOTAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023-yil yanvar-may, % da)





SAMARQAND VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-may, yillar kesimida)

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Xitoy Xalq Respublikasi	132,5	232,9	155,3	175,8	1	1
Rossiya Federatsiyasi	109,3	183,7	140,9	168,2	2	2
Qozog'iston	106,4	91,8	177,9	86,3	3	3
Turkiya	42,3	55,8	92,9	132,0	4	4
Sloveniya	18,4	24,4	103,2	132,5	9	5
Germaniya	21,0	22,3	115,0	105,9	8	6
Yaponiya	40,6	21,1	105,2	52,0	5	7
Polsha	6,8	20,6	141,9	305,2	18	8
Eron	14,1	15,4	138,2	109,2	11	9
Hindiston	29,1	13,6	214,1	46,7	6	10
Latviya	11,4	13,3	106,5	117,2	12	11
Litva	11,1	12,8	110,8	115,4	13	12
Italiya	3,5	8,8	178,3	250,7	22	13
Niderlandiya	7,1	8,3	159,7	117,6	17	14
Bangladesh	5,1	7,8	85,8	154,6	19	15
Avstriya	3,3	6,2	72,1	184,5	26	16
Gruziya	7,8	6,0	88,7	76,6	15	17
Koreya Respublikasi	4,5	5,8	71,2	130,3	20	18
Pokiston	3,5	5,3	87,6	149,9	23	19
Vengriya	7,5	4,7	59,8	62,8	16	20



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2023-yil yanvar-may)

	Hajm mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Samarqand viloyati	823,8	123,0	100
Samarqand shahri	438,5	124,9	53,2
Kattaqo'rg'on shahri	10,6	198,9	1,3
tumanlar:			
Oqdaryo	9,0	99,7	1,1
Bulung'ur	3,4	143,4	0,4
Jomboy	51,9	64,7	6,3
Ishtixon	3,1	50,6	0,4
Kattaqo'rg'on	100,8	28,4 m.	12,2
Qo'shrabot	2,4	148,0	0,3
Narpay	4,6	3,3 m.	0,6
Payariq	4,0	177,1	0,5
Pastdarg'om	24,7	97,0	3,0
Paxtachi	1,4	94,4	0,2
Samarqand	56,8	102,8	6,9
Nurobod	9,9	146,0	1,2
Urgut	55,3	93,9	6,7
Toyloq	47,4	80,3	5,7

Eng yuqori hajm,
mln. AQSh dollari



Samarqand sh. 438,5

Kattaqo'rg'on t. 100,8

Samarqand t. 56,8

Eng quyi hajm,
mln. AQSh dollari



Ishtixon t. 3,1

Qo'shrabot t. 2,4


Paxtachi t. 1,4

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **53,2 %** ulush bilan **438,5** mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Paxtachi tumani **0,2 %** ulush bilan **1,4** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2023-yil yanvar-may, hajmi mln. dol., ulushi, % da)



2023-yilning yanvar-may oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **1,3** mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining **0,2** %ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **24,8** %ga ko'paydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (**97,3** %), boshqa safarlar (turizm) xizmatlari (**1,7** %), ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, boshqa joyda tasniflanmagan (**0,9** %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (**0,1** %) ga tegishli bo'ldi.



Xizmatlar importida eng yuqori hajm **1,3** mln. AQSh dollarini yoki **97,3** % ini tashkil etgan bo'lsa, qolgan **2,7** % ini boshqa xizmat turlari tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI







Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023-yil yanvar-may oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalar hajmi **259,8** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2022-yilning shu davriga nisbatan **29,2** % ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **31,5** % ga yetdi.



MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023-yil yanvar-may)




2023-yil yanvar-may oylarida mashina va transport asbob-uskunalar importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **58,7** mln. AQSh dollariga ko'paydi. Ushbu tovarlarni Samarqand Viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi **XXR** — **161,5** mln. AQSh dollari (**62,2** %), **Yaponiya** — **20,8** mln. AQSh dollari (**8,0** %) va **Turkiya** – **20,5** mln. AQSh dollari (**7,9** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI




2023-yil yanvar-may oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **197,6** mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **31,0** % ga ko'paydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **24,0** % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023-yil yanvar-may, ulushi, % da)



Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki po'lat (**118,3** mln. AQSh dollari), boshqa joyda tasniflanmagan to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (**30,4** mln. AQSh dollari), Boshqa joyda tasniflanmagan metallardan tayyorlangan buyumlar (**10,6** mln. AQSh dollari), boshqa joyda tasniflanmagan rezina buyumlari (**9,6** mln. AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 66-235-65-80**